SAMARQAND VILOYATI PASTDARG‘OM TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 4-sentabr | 236-7-101-Q/25 | Pastdarg‘om tumani hokimligi

Samarqand viloyati hokimining 2024-yil 26-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-noyabrdagi “Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga talabgorlarni tanlash va ularning hujjatlarini taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 731-son qarori ijrosini ta’minlash haqida”gi 344-7-0-Q/24-son qarori to‘g‘risida

Samarqand viloyati hokimining 2024-yil 26-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-noyabrdagi “Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga talabgorlarni tanlash va ularning hujjatlarini taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 731-son qarori ijrosini ta’minlash haqida”gi 344-7-0-Q/24-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Samarqand viloyati hokimining 2024-yil 26-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-noyabrdagi “Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga talabgorlarni tanlash va ularning hujjatlarini taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 731-son qarori ijrosini ta’minlash haqida”gi 344-7-0-Q/24-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan quyidagilarni nazarda tutuvchi Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga talabgorlarni tanlash va ularning hujjatlarini taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin:

- talabgorlarga qo‘yiladigan talablar va ularning yutuqlari, ilmiy-ijodiy va amaliy ishlarini baholash mezonlari;

- talabgorlarni tanlash bo‘yicha tuman (shahar), hududiy va respublika komissiyalari faoliyatini tashkil etish;

- talabgorlarning hujjatlarini taqdim etish va ularni rasmiylashtirish tartibi.

3. Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga talabgorlarni tanlash bo‘yicha tuman komissiyasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman Oila va xotin-qizlar bo‘limi manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda:

- ushbu qarorning mazmun-mohiyati va ahamiyati to‘g‘risida jamoatchilik o‘rtasida tushuntirish ishlarini amalga oshirsin;

- mazkur qaror talablari asosida ishlarni tashkil etsin hamda qabul qilingan huquqiy tusdagi hujjatlarini ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

5. Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga talabgorlarni tanlash bo‘yicha tuman komissiyasi a’zolari mazkur qaror talablari asosida ishni tashkil etsin.

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari - Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i N.Korayeva zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Sh.Raxmanov**

Tuman hokimi **Sh.Raxmanov**

Pastdarg‘om tumani hokimining
2025-yil 4-sentabrdagi
236-7-101-Q/25-son qaroriga
1-ilova

“Zulfiya” nomidagi Davlat mukofotiga tavsiya etish bo‘yicha Pastdarg‘om tumani komissiyasi tarkibi

T/r	Komissiya a’zolarining F.I.SH.		Ish joyi va lavozimi
1.	Korayeva Nazira Yusupovna	-	Tuman Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i, ***komissiya raisi***
2.	Mustafoyev Husan Toshpulatovich	-	Tuman hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari, ***komissiya a’zosi***
3.	Murodullayev Nurjahon Shukrullo o‘g‘li	-	Tuman Madaniyat bo‘limi boshlig‘i, ***komissiya a’zosi***
4.	Xuseynov Izzat Akramjonovich	-	Tuman Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i, ***komissiya a’zosi***
5.	Mamasoliyev Soxib Yusupovich	-	Tumandagi 1-BO‘SM rahbari, ***komissiya a’zosi***
6.	Saparova Nodira Halikulovna	-	Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i, ***komissiya a’zosi***
7.	Lavozimiga ko‘ra	-	Yoshlar ishlari agentligining tuman bo‘limi boshlig‘i, ***komissiya a’zosi***
8.	Shukurov Baxtiyor G‘affarovich	-	“Pastdarg‘om haqiqati” gazetasi bosh muharriri, ***komissiya a’zosi***
9.	Xolmurodova Flora Ubaydullayevna	-	Xalq deputatlari tuman kengashi kotibiyati mudiri, ***komissiya a’zosi***
10.	Qo‘chqorova Gulfiniso Normuratovna	-	Samarqand Ixtisoslashtirilgan san’at maktab-internati, ***komissiya a’zosi***
11.	Kelishuv asosida	-	Tuman 1-IDUM o‘qituvchisi,

			komissiya a’zosi
12.	Kelishuv asosida	-	Tumandagi umumiy o‘rta ta’lim maktabining tasviriy san’at o‘qituvchisi, ***komissiya a’zosi***
13.	Mustafoyeva Guljahon	-	“Pastdarg‘on haqiqati” gazetasi muxbiri, ***komissiya a’zosi***
14.	Kelishuv asosida	-	Bolalar va o‘smirlar sport maktabi murabbiyi, ***komissiya a’zosi***
15.	Tojiyeva Robiya	-	Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori, ***komissiya a’zosi***
16.	Jumaboyeva Manzura	-	“Oqila ayollar” guruhi rahbari, ***komissiya a’zosi***
17.	Xurramov Sanjar Yusufovich	-	Tuman hokimligi Raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha loyihalar menejeri, ***komissiya a’zosi***
18.	G‘afforova Zarina Shuhratovna	-	Tuman hokimligi Ijro nazorati bo‘yicha bosh mutaxassisi, ***komissiya a’zosi***
19.	Jurayeva Adolat Ahrarovna	-	Tuman kasaba uyushmasi raisi, ***komissiya a’zosi***
20.	Jurakulov Voxidjon Nurdullayevich	-	Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman bo‘limi rahbari, ***komissiya a’zosi***
21.	Akbarov Azimjon Nuriddinovich	-	Oila va xotin-qizlar bo‘limi mutaxassisi, ***komissiyaning mas’ul kotibi***

Izoh: Komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tganda, uning tarkibiga mazkur lavozimga yangi tayinlangan yoki tegishli vazifani bajarish yuklatilgan shaxslar kiritiladi.